

«TiBiSi Bank» ATB o‘z biznesini xalollik, professionallik, vijdonlilik tamoyillariga va axloqiy me‘yorlarga rioya etgan holda olib borishga intilar ekan, bu yo‘lda u **Anonim ishonch tizimini** joriy etdi, u yerga Siz onlayn tartibida Bank yoki uning filiallari xodimlarining ishtiroki bilan bog‘liq mojaroli holatlar\qoidabuzarliklar haqida ma‘lumotlarni taqdim etishingiz mumkin bo‘ladi. Bunday ma‘lumot quyidagilarni qamrab olishi mumkin:

- Firibgarlik, korrupsiya, pul yuvish sxemalarida qatnashish;
- Bankning ichki siyosati, nizomi, yo‘riqnomalarini buzilishi;
- Xodimlarni kamsitish;
- Manfaatlarga to‘qnashuviga e‘tiborsizlik;
- Jinoiy huquqbuzarliklar (masalan, bosqinchilik bilan o‘g‘rilik sodir etilishi \ talonchilik, hujjatlarni soxtalashtirish)
- Bank manfaatlarini xavf ostiga qo‘yilishi, moliyaviy zarar yetkazilishi yoki Bank xodimlarining birortasi uchun ish jarayonini murakkablashtirishi mumkin bo‘lgan har qanday noto‘g‘ri hatti-harakatlar

Siz ma‘lumotlarni anonim tarzda himoyalangan veb-sahifa orqali jo‘natishingiz mumkin.

Shunga e‘tibor qaratingki, **Anonim ishonch tizimi** xizmatlarning sifati, mahsulotlar sharti yoki texnik kamchiliklarga oid arzlarni uchun mo‘ljallanmagan.

Bankda Anonim ishonch tizimidan tashqari qoidabuzarliklar\mojarolar to‘g‘risida quyidagi xabar berish kanallari ham faoliyat yuritadi.

- Anonim telefon raqami +998 78 888 27 27
- El.pochta: incident_compliance@tbcbank.uz
- Anonim xat jo‘natish;

Mojarolarni boshqarish va da‘vogarlarini himoya qilish shart-sharoitlari to‘g‘risida qo‘shimcha ma‘lumotlar olish uchun “Tez-tez beriladigan savollar”ga qarang (FAQs).

TEZ-TEZ BERILADIGAN SAVOLLAR

1. **«TiBiSi Bank» ATB uchun Anonim ishonch tizimi nega kerak?**

«TiBiSi Bank» ATBda **Anonim ishonch tizimi** «TiBiSi Bank» ATB yoki uning filiallaridagi mojaroli holatlar\qoidabuzarliklar haqida ma‘lumotlar\muammolar\asosli shubhalarga ega bo‘lgan, biroq ularni boshqa kanallar orqali xabar qilishdan bosh tortgan har qanday shaxs uchun mo‘ljallangan.

2. **Xabar qanday jo‘natiladi?**

Anonim ishonch tizimiga bossangiz siz himoyalangan xabarlar veb-shakliga qayta yo‘naltirilasiz, bu yerda Sizdan Bank ko‘rib chiqish uchun yuborilgan ishni tahlil qila oladigan darajada imkon qadar batafsil ma‘lumotlarni taqdim etishingiz talab etiladi.

Xabarlar onlayn-shakli yordamida Siz o‘z ismingizni va elektron pochta manzilingizni ko‘rsatishingiz mumkin, biroq bu majburiy emas.

Majburiy bo'lmasa-da, o'z elektron pochta manzilingizni ko'rsatishingiz maqsadga muvofiq, chunki Bank qo'shimcha ma'lumotlar yoki izohlarni olish maqsadida Siz bilan bog'lana olishi kerak. Anonim qolish istagingizni inobatga olgan holda, sizning shaxsingizni aniqlash imkonini bermaydigan elektron pochta manzilini taqdim etishingiz ham mumkin.

Bundan tashqari, Siz agar mavjud bo'lsa, tasdiqlovchi hujjatlarni ham yuklashingiz mumkin.

3. Mojaroli holatlar/qoidabuzarliklar haqidagi ma'lumotlarni jo'natishim mumkin bo'lgan boshqa usullar ham mavjudmi?

Anonim ishonch tizimidan tashqari quyidagi vositalar ham mavjud bo'lib, ular yordamida Siz muammolar haqida xabar berishingiz mumkin:

- Anonim telefon raqami +998 78 888 27 27
- Elektron pochta orqali: incident_compliance@tbcbank.uz
- Anonim xat jo'natish.

4. Mening shaxsim qay tarzda anonim bo'lib qoladi?

Anonim ishonch tizimining telefoni raqami qong'iroq qiluvchini identifikatsiya qilmaydi.

Anonim ishonch tizimi IP-adresga ega jurnallarni yaratmaydi va yuritmaydi.

5. Agar men xabarni anonim bermasam va o'zim haqimda ma'lumotlarni taqdim etsam, bu narsa sir saqlanadimi?

«TiBiSi Bank» ATB identifikatsiya qilinganlarni ham va anonim hisobotlarni ham maxfiy tarzda ko'rib chiqadi va qonun bo'yicha talab qilinmasa, sizning ismingizni hech kimga oshkor qilmaydi.

6. Anonim ishonch tizimi bo'yicha qanday mojaroli holatlar/qoidabuzarliklar haqida xabar qilish joiz?

Anonim ishonch tizimidan foydalanganda Siz xodimlarning noaxloqiy, noqonuniy fe'l-atvorlari bilan bog'liq haq-huquqlaringizni cheklab qo'yuvchi mojaroli holatlar/qoidabuzarliklar haqida, va ayni vaqtda firibgarlik, soxtalashtirish, korrupsiya, kamsitish, har qanday noto'g'ri xatti-harakatlar bilan bog'liq bo'lgan hamda quyidagilarni ham o'z ichiga olgan, biroq bu bilan cheklanib qolmagan holatlar bo'yicha xabar berishingiz lozim:

- Xodimlarning Bankka salbiy moliyaviy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan vijdotsizlarcha xatti-harakatlari;
- Ma'lumotlarni qasddan qalbakilashtirish yoki o'zgartirish;
- Xizmat vakolatlari va majburiyatlarini shaxsiy manfaatlar yoki uchinchi shaxslarning manfaatlarini yo'lida suiiste'mol qilish
- Xodimlarni kamsitish
- Manfaatlar mojarosiga e'tiborsizlik
- Ichki va huquqiy nizomlar buzilganida uchinchi shaxslarga maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilish;
- Ichki ma'lumotlar asosida Bank qimmatli qog'ozlarining savdosi;

- Bank manfaatlarini xavf ostiga qo'yish, moliyaviy zarar yetkazish yoki obro'sini to'kish va/yoki Bank xodimlarining birortasi uchun ish jarayonini murakkablashtirishi mumkin bo'lgan har qanday noto'g'ri hatti-harakatlar

7.Nima uchun men muammolar haqida xabar berishim kerak?

- Chunki oshkoralik, halollik, adolat, ishonch va professionallik kabi qadriyatlar siz uchun muhimdir
- Agar siz bilgan mojaroli holat\qoidabuzarlik haqida murojaat qilmasangiz,sizga nisbatan qo'llanilmasa-da, Siz Bank faoliyatini xavf ostida qoldirasiz*
- Mojaroli holatlar\qoidabuzarliklar to'g'risidagi habarlar ilk bosqichlarida Bankni va uning xodimlarini potentsial zararlardan himoya qiladi.
- Albatta bizga xabar bering, aks holda korrupsiya, firibgarlik, jinoiy sxemalar ishtirokchisiga aylanib qolasiz.